

Hukumat portalining mobil versiyasi va mobil ilovalari

O'zbekiston Respublikasi aholisiga va xalqaro jamoatchilikga O'zbekiston Respublikasining hukumati faoliyati, Respublikaning siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda amalga oshirayotgan islohotlarni axborot resurslari orqali yoritib borish maqsadida Hukumat portalining mobil versiyasida ishlab chiqildi.

Mobil versiya orqali:

- O'zbekistonning ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy hayoti;
- O'zbekiston Respublikasining davlat tuzilmasi;
- davlat, ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy institutlar;
- davlat organlari va tashkilotlarning faoliyati, tuzilmasi, vazifasi, vakolatlari va bog'lanish uchun ma'lumotlari;
- yuridik va jismoniy shaxslarning davlat organlaridan ruxsatnomalar olish shartlari, blankalar va hujjatlar;
- axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda ko'rsatilayotgan interaktiv davlat hizmatlari;
- davlat organlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining holati va rivojlanishi to'g'risida;
- davlat xokimiysi organlari va boshqa tashkilotlarda o'tkazilgan tadbirlar, anonslar, fotoarxivlar va mamlakatdagi boshqa muhim voqealar;
- boshqa barcha foydalanishi mumkin bo'lgan hujjatlar to'g'risida ma'lumotlarni olish mumkin.

Bundan tashqari, Hukumat portalining Android, iOS, WindowsPhone platformalarida mobil ilovalari ishlab chiqilgan va Internetda joylashtirilgan ([Google Play](#), [Windows Phone Store](#), [App Store](#))